

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**BALTASHEV JUR SINBAY MURATBAEVICH**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA QORAMOLCHILIKNI  
RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH  
YO‘NALISHLARI**

**08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2023**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract of doctor of philosophy (PhD)  
in Economics Sciences**

**Baltashev Jursinbay Muratbaevich**

Qoraqalpog'iston Respublikasida qoramolchilikni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'nalishlari.....3

**Балташев Журсинбай Муратбаевич**

Направления развития скотоводства и повышение экономической эффективности в Республике Каракалпакстан .....29

**Baltashev Jursinbay Muratbaevich**

Directions for the development of cattle breeding and increasing economic efficiency in the Republic of Karakalpakstan .....57

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....61

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**BALTASHEV JUR SINBAY MURATBAEVICH**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA QORAMOLCHILIKNI  
RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH  
YO‘NALISHLARI**

**08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2023**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Iqt1541 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirildi.

**Ilmiy rahbar:**

**Hakimov Rashid**

iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy oponentlar:**

**Ubaydullaev Kayrulla**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ibragimov Gayrat Abluqulovich**

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.I.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «05» avgust soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-47, e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (142 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25, e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «22» iyul kuni tarqatildi.  
(2023-yil «22» iyul dagi 32 raqamli reestr bayonnomasi).



*S. Jovti*

**J.K.Sauxanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

*R.B. Utemuratov*

**R.B.Utemuratov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

*T. Doschanov*

**T.Doschanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshiladigan ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda globallashtirish jarayonlari tobora kuchayib borishi bilan aholining xavfsiz va sogʻlom oziq-ovqat, jumladan, chorvachilik mahsulotlariga boʻlgan talabi keskin oshib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi (FAO) tashkiloti mutaxassislarining fikricha “Garchi chorvachilik sektori iqtisodiy jihatdan global iqtisodiyotda muhim rol oʻynamasada, iqtisodiy va siyosiy jihatdan juda muhim sanaladi. Tarmoq qishloq xoʻjaligi yalpi mahsulotining 40 foizini tashkil qiladi, 1,3 mlrd. kishini ish bilan taʼminlaydi va bir milliard kambagʻallarga yashash uchun sharoit yaratmoqda. Chorvachilik mahsulotlari insoniyatning uchdan bir qismini protain bilan taʼminlagan holda toʻyib ovqatlanish mumkin boʻlgan vosita hisoblanadi. Jahon miqyosida goʻsht ishlab chiqarish 2001-yildagi 229 million tonnadan 2050-yilda 465 million tonnagacha, sut ishlab chiqarish esa 580 million tonnadan 1043 million tonnagacha koʻpayishi taxmin qilinmoqda”<sup>1</sup>. Chorvachilik, jumladan, qoramolchilik sohasining salohiyatidan samarali foydalanish uni yanada rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish yoʻnalishlarini tadqiq etishni taqozo etadi.

Hozirda jahonda sogʻlom va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari uchun raqobatlashuv kuchayib borayotgan sharoitda chorvachilik, jumladan, qoramolchilikni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini oshirishga yoʻnaltirilgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Aholining xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlariga boʻlgan talabini qondirish, chorvachilik uchun yer maydonlarini kengaytirish va ulardan samarali foydalanish, chorva sonining oʻsishi bilan qishloq xoʻjaligi ekin maydonlari, xususan yaylovlar oʻrtasidagi mutanosiblikni taʼminlash, yer osti va daryo suvlaridan chorvachilik maqsadlarida oqilona foydalanish, rekreatsiya hududlaridan chorvachilik maqsadlarida foydalanish, ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqish masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan hisoblanadi.

U aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli taʼminlashda oʻziga xos iqlim va ekologik sharoitiga ega Qoraqalpogʻiston Respublikasining bepoyon choʻllaridan va Amudaryo sohillaridagi yaylovlardan chorvachilik maqsadlarida foydalanishni kengaytirishga eʼtibor qaratilmoqda. Bu orqali aholi isteʼmol qilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari tarkibini ilmiy asoslangan tibbiy meʼyorlar talabiga muvofiqlashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. “Aholini goʻsht, sut mahsulotlari bilan tibbiy meʼyorlar darajasida taʼminlash, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini absolyut va nisbiy kamaytirish, tarmoqda mehnat unumdorligini yuksaltirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi”<sup>2</sup>. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish

---

<sup>1</sup> Erb, Karl-Heinz & Haberl, Helmut & Krausmann, Fridolin & Lauk, Christian & Plutzar, Christoph & Steinberger, Julia & Müller, Christoph & Bondeau, Alberte & Waha, Katharina & Pollack, Gudrun. (2009). Eating the Planet: Feeding and fuelling the world sustainably, fairly and humanely – a scoping study. P-18.

<sup>2</sup> Romanchuk, Irina & Kopylova, Kateryna & Verbytskyi, Sergii & Kozachenko, Olha & Patsera, Nataliia. (2021). Enhancing national standards for meat and dairy industry. FOOD RESOURCES. 9. 150-163. 10.31073/foodresources2021-16-15.

chorvachilikning iqtisodiy samaradorligini baholash uslubini yanada takomillashtirish, “aqli” sutchilik qoramolchilik majmualari, maxsus boqishga mo‘ljallangan “aqli” bo‘rdoqichilik fermalari hamda zotdor gunojin fermalarini tashkil etish orqali qoramolchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish, respublika, viloyat, tuman veterinariya qo‘mitasi tarkibida faoliyat yurituvchi “Raqamli chorvachilikni qo‘llab-quvvatlash innovatsion bo‘limi”ni tashkil etish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qoramolchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining istiqbol ko‘rsatkichlarini baholashga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-son “O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 3-martdagi PQ-5017-son “Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 28-martdagi PQ-4254-son “O‘zbekiston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”, 2019-yil 7-noyabrdagi PQ-4512-son “Qoraqalpog‘iston Respublikasida chorvachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-son “O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 18-martdagi PQ-4243-son “Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentyabrdagi 830-son “Aholi xonadonlarida va chorvachilik yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda parvarish qilinayotgan chorva hayvonlarini sug‘urta qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori hamda soha faoliyatiga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika va fan texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatini manaviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarildi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Qoramolchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirish, go‘sht va sut mahsulotlari yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, qoramolchilik xo‘jaliklari faoliyatida integratsiya va kooperatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish, go‘sht va sut ishlab chiqarish va qayta ishlash tizimiga investitsiyalarni jalb etish, chorvachilik komplekslarini tashkil qilish masalalaridagi nazariy-amaliy ahamiyatga ega tavsiyalar Андриянова Л.,

Байчерова А., Трофимова Е., Ляшеко В., Синтникова И., Горковенко Л., Пугенко Я., Мысик А., Третьякова О., Амерсдоффер Ф., Жебит А., Заводчиков Н., Хабарова С. kabi ko‘plab xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida aks ettirilgan.

Respublikamiz olimlari tomonidan qishloq xo‘jaligi, jumladan chorvachilikni rivojlantirish va chorva mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muammolari R.X.Xusanov, Q.A.Choriyev, N.S.Xushmatov, T.X.Farmonov, T.S.Mallabayev, R.Hakimov, T.Omarov, A.Yuldashev, Z.Kusharov, U.Qo‘chchiyev va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan.<sup>3</sup>

Shuningdek, mintaqada shirkat xo‘jaliklaridagi chorvachilik fermalari, fermer xo‘jaliklari va shaxsiy yordamchi xo‘jaliklardagi chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, sotish tizimini shakllantirish va rivojlantirish, chorva mahsulotlari yetishtirish samaradorligini oshirish kabi yo‘nalishlar bilan bog‘liq muammolar K.Ubaydullayev, T.Doschanov, S.Salayev, J.Sauxanov, A.Musagaliyev, R.Adilchayev, T.Nurimbetovlar tomonidan o‘rganilgan<sup>4</sup>. Lekin, bugungi iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida respublikamizda qoramolchilik tarmog‘ini innovatsion rivojlantirish, aholi ehtiyojlarini qondirish va soha eksport salohiyatini yanada oshirish maqsadida arzon va ekologik toza go‘sh-tsut mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari yangicha, yani zamon talablariga mos va taraqqiy etgan davlatlarda sinovdan o‘tgan ilg‘or innovatsion g‘oya va texnologiyalarni tatbiq etish, chorvachilik xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga xizmat qiladigan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish, sohadagi hozirgi mavjud muammolarni bartaraf etish borasidagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zaruriyati ushbu tadqiqot ishi mavzusining tanlanishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpog‘iston davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq hamda «Qoraqalpog‘istonning ayrim tumanlarida ozuqa va ozuqa miqdori, ulardan foydalanish va chorvachilik xo‘jaliklarini boshqarish metodlari» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Qoraqalpog‘iston Respublikasida qoramolchilikni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

**Tadqiqot vazifalari.** Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar qo‘yildi va hal etildi:

agrар iqtisodchi olimlarning iqtisodiy samaradorlik tushunchasi va mohiyatiga oid qarashlarini tahlil qilish;

qoramolchilik mahsulotlari yetishtirishning iqtisodiy samaradorligiga ta‘sir qiluvchi omillarni tasniflash;

---

<sup>3</sup> Mazkur olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar bo‘limida keltirilgan.

<sup>4</sup> Qarang. – O‘sha joyda

qoramolchilikda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash usullarining nazariy jihatlarini tadqiq qilish;

Qoraqalpog'iston Respublikasida qoramolchilik mahsulotlari yetishtirish dinamikasini tahlil qilish;

Qoraqalpog'iston Respublikasida qoramolchilik mahsulotlari yetishtirish iqtisodiy samaradorligining hozirgi holatini tahlil qilish asosida uni oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

qoramolchilik tarmog'ini modernizatsiyalash yo'nalishlarini aniqlash va istiqbolini belgilash;

qoramolchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishning 2025-yilgacha bo'lgan prognozlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqod obyekti** bo'lib, Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat yurituvchi go'sht va sut yetishtiruvchi xo'jaliklar xizmat qildi, tadqiqotlar Taxtako'pir, Qo'ng'iroq, Bo'zatov, Mo'ynoq tumanlari qoramolchilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar misolida amalga oshirildi.

**Tadqiqot predmetini** qoramolchilik tarmog'ini iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot olib borish jarayonida abstrakt mantiqiy fikrlash, iqtisodiy-statistik, taqqoslama tahlil, so'rovnoma, monografik kuzatish va ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Tadqiqot natijalari asosida Qoraqalpog'iston Respublikasining qoramolchilik tarmog'ini rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirishda quyidagi ilmiy yangiliklar ishlab chiqilgan:

chorvachilikda iqtisodiy samaradorlikka erishishda natural va qiymat samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash hamda dehqon xo'jaligi faoliyatining xususiy samaradorlik ko'rsatkichlarini "mahsulot sifat o'zgarishlarini"ni inobatga olish orqali baholash usuli ishlab chiqilgan;

Qo'ng'iroq, Bo'zatov, Mo'ynoq va Taxtako'pir tumanlarida "aqli sutchilik qoramolchilik majmua"larini tashkil etish, shuningdek, erkak buzoqlarni sotib oladigan maxsus boqishga mo'ljallangan "aqli bo'rdoqichilik ferma"larini tashkil etish hamda "zotli gunajin" fermalarini tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

tumanlar, viloyat va resublikada veterinariya qo'mitasi tarkibida faoliyat yurituvchi "Raqamli chorvachilikni qo'llab-quvvatlash innovatsion bo'lim"ini ochish va uni moliyalashtirish asoslari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi qoramolchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 2025-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

qoramolchilik tarmog'i va unda ishlab chiqariladigan mahsulotlar soniga va sifatiga iqlim o'zgarishi ko'rsatadigan salbiy ta'sirlari tahlili asosida cho'l hududlarni yashil makonga aylantirish bo'yicha xorijiy tajribalarni qo'llash orqali mahsulotlarni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlari ishlab chiqilgan;

chorvachilikda iqtisodiy samaradorlikka erishishda natural va qiymat samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash hamda dehqon xo'jaligi faoliyatining xususiy samaradorlik ko'rsatkichlarini "mahsulot sifat o'zgarishlari"ni inobatga olish orqali baholash usuli ishlab chiqilgan;

tumanlar, viloyat va resublikada veterinariya qo'mitasi tarkibida faoliyat yurituvchi "Raqamli chorvachilikni qo'llab-quvvatlash innovatsion bo'lim"ini hamda "Marketing maslahatlari" bo'limini ochish va ularni moliyalashtirish asoslari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

Qoramolchilik tarmog'ini tubdan modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash, tarmoqning yem-xashak bazasini mustahamlash, mahsulotlar sifatini oshirish va tarmoqda bozor munosabatlarini chuqurlashtirish natijasida go'sht va sut mahsulotlari yetishtirish hajmini natural va qiymat o'zgarishining 2025-yilgacha bo'lgan prognozi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotlar jarayonida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijalarining ishonchliligi foydalanilgan uslubiy yondashuv va qo'llanilgan usullarning asoslanganligi, statistik ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, monografik kuzatuv natijalari, so'rovnomalar asosida olinganligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarining amalda sinovdan o'tganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqotda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarining agrosanoat majmuasini samarali boshqarish, tizimda kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish va uning istiqbolini asoslashning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati agrosanoat majmuasi, jumladan agroklastlar boshqaruv tizimida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, tarmoq vazirliklari va idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqa davlat organlari tomonidan maqsadli tarmoq dasturlari, maxsus kontseptsiyalar va «Yo'l xarita»larini ishlab chiqishda keng miqyosda foydalanish hamda oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining agrosanoat majmuasi ixtisosligi bo'yicha o'quv adabiyotlari, jumladan darsliklar va qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qoramolchilik tarmog'ini rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

chorvachilikda iqtisodiy samaradorlikka erishishda natural va qiymat samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash hamda dehqon xo'jaligi faoliyatining xususiy samaradorlik ko'rsatkichlarini "mahsulot sifat o'zgarishlari"ni inobatga olish orqali ishlab chiqilgan baholash usuli Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi ish faoliyatida foydalanish uchun joriy qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 12-oktyabrda 03/016-2901-son ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning

joriy qilinishi natijasida Qoraqalpog‘iston Respublikasida chorvachilik mahsulotlarining aniq natural va qiymat ko‘rsatkichlarini uy xo‘jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlari ham hisoblanilgan. Qorao‘zak va Taxtako‘pir tumanlarida yangi qoramol zotlarini keltirish va ularni ko‘paytirish orqali go‘sh va sut mahsulotlarining 25 % ga oshishiga erishilgan;

Qo‘ng‘irot, Bo‘zatov, Mo‘ynoq va Taxtako‘pir tumanlarida “aqli sutchilik qaromolchilik majmua”larini tashkil etish, shuningdek, erkak buzoqlarni sotib oladigan maxsus boqishga mo‘ljallangan “aqli bo‘rdoqichilik ferma”larini tashkil etish hamda “zotli gunajin” fermalarini tashkil etish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi ish faoliyatida foydalanish uchun joriy qilingan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022-yil 12-oktyabrdagi 03/016-2901-son ma‘lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning joriy qilinishi natijasida Taxtako‘pir, Mo‘ynoq, Bo‘zatov, To‘rtko‘l tumanlarida chorvachilik tarmog‘i xo‘jaliklari uchun veterinariya xizmatlarini ko‘rsatish markazlari ochilgan hamda ularda qoramol kasalliklari 35 % ga kamaygan;

tumanlar, viloyat va resublikada veterinariya qo‘mitasi tarkibida faoliyat yurituvchi “Raqamli chorvachilikni qo‘llab-quvvatlash innovatsion bo‘lim”ini ochish va uni moliyalashtirish asoslari bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi ish faoliyatida foydalanish uchun joriy qilingan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022-yil 12-oktyabrdagi 03/016-2901-son ma‘lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning joriy qilinishi natijasida vazirlik huzurida innovatsiyalar bo‘limi tashkil qilingan hamda ilmiy va startup loyihalarini ishlab chiqishga ko‘maklashish va ularni fermer xo‘jaliklarida, xususan, chorvachilik xo‘jaliklarida foydalanishiga erishilmoqda. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi vazirligi saytida marketing xizmatlarini tashkil qilish orqali ijtimoiy tarmoqlarda “Malbazar” platformasi ishlab chiqilgan. Bunda chorvachilik mahsulotlarini sotish, tarqatish, yetkazib berish xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi qaromolchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 2025-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi ish faoliyatida foydalanish uchun joriy qilingan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022-yil 12-oktyabrdagi 03/016-2901-son ma‘lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning joriy qilinishi natijasida Qoraqalpog‘iston Respublikasida chorvachilik mahsulotlari 2021-yildagi 6021386,0 mlrd. so‘mdan prognoz davrida 2025-yilga kelib, 12413310,8 mlrd. so‘mni tashkil etishi, bu ko‘rsatkichning 2021-yilga nisbatan absolyut o‘shishi 6391924,8 mlrd. so‘mni, yoki nisbiy o‘shish 48,5 foizni tashkil etishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining natijalari 5 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarida muhokama qilingan va ma‘qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ishlar, jumladan ularning 9 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy

attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, shundan 6 tasi mahalliy, 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan, 11 tasi ilmiy-amaliy konferensiyalardagi ma’ruzalar tezislari hisoblanadi.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 133 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, ularni amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qoramolchilik tarmog‘ini rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida iqtisodiy samaradorlikning nazariy asoslari yoritilib, qoramolchilik tarmog‘i iqtisodiy samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar va qoramolchilikda iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash usullari bayon qilingan.

Mamlakat iqtisodiyoti, aholisi uchun barcha zaruriy mahsulot va xizmatlarni bozorda mavjud bo‘lishi har bir iqtisodiyot uchun amal qilishning asosiy sharti hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir iqtisodiy subyekt o‘z xarajatlarini faoliyati natijasida oladigan umumiy daromadlari bilan to‘liq qoplashi va kengaytirilgan ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlab chiqarish faoliyatiga yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etishi uchun ma’lum miqdorda foyda bilan ta’minlangan bo‘lishi talab qilinadi. Aks holda iqtisodiy subyekt o‘z faoliyatini davomli yurita olmaydi. Zararli faoliyati natijasida o‘zida mavjud barcha resurslarni yo‘qotadi va bankrot holatiga tushib, o‘z faoliyatini yakunlaydi.

Iqtisodiy fan samara, samaradorlik kabi tushunchalarni bir biridan farqlaydi. Har qanday faoliyat qandaydir natija bilan yakunlanadi. Olingan natija turli miqdorda va sifatda bo‘ladi. Ushbu natija iqtisodiyot fanlari tilida samara deb ataladi. Ya’ni amalga oshirilgan faoliyat oqibatida yuzaga kelgan natija – samaradir. Samaradorlik - olingan natija, ya’ni samara bilan uni olish uchun sarflangan xarajatlarni taqqoslaganda hosil bo‘ladigan natijadir.

Qoramolchilikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tarkibiy jihatdan asosan tarmoqni boshqarish jarayonida bevosita va bilvosita foydalaniladigan tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va huquqiy tuzilma elementlaridan iborat bo‘lib, u o‘zaro bog‘liq ikkita muammoni hal etishi zarur. Birinchidan, kerakli hajmda qoramolchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish, ikkinchidan, xo‘jalik yuritish subyektlarining samarali faoliyat yuritishi va yuqori daromad olishi uchun sharoit yaratib berishi talab etiladi.

Qoramolchilik tarmog‘ini rivojlantirish, go’sht-sut mahsulotlari sifatini yaxshilash va xarajatlarini arzonlashtirish, sohaning eksport salohiyatidan to‘liq

foydalanish va samaradorligini oshirish uchun avvalambor, uni tegishli barcha omil va resurslar bilan to'liq ta'minlash chora-tadbirlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu bilan bir qatorda, hozirgi paytda va yaqin kelajakda o'z yechimini kutayotgan va kechiktirib bo'lmaydigan bir qator vazifalar mavjudligini e'tirof etish o'rinlidir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev qayd etganidek, "Chorvachilik sohasiga to'xtaladigan bo'lsak, qoramol va parranda sonini ko'paytirish, bu borada sifat va mahsuldorlikka erishish uchun yetarli sharoit yaratishimiz zarur. Yaqin istiqbolda har bir tumanda ixtisoslashtirilgan bo'rdoqichilik komplekslari, yuqori texnologik parrandachilik fabrikalari tashkil etilishi lozim"<sup>5</sup>.

Samaradorlik mezonni xususida ham yagona fikr mavjud emas. Masalan, aksariyat iqtisodchi olimlarning ta'kidlashicha, iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda qaysidir bitta mezondan emas, balki mezon va ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur. Olib borgan tahlillarimizga asosan, ular tomonidan taklif etilgan quyidagi mezon va ko'rsatkichlarni, ya'ni ishlab chiqarish samaradorligi mezonlariga yalpi ichki mahsulotning xarajatlarga nisbati, milliy daromadning xarajatlarga nisbati, yakuniy mahsulotning xarajatlarga nisbati, iste'mol fondining xarajatlarga nisbati, milliy boylukning xarajatlarga nisbati, ish haqining zaruriy mahsulotlarga nisbati, yalpi ichki mahsulotning ishlab chiqarish resurslariga nisbati, milliy daromadning resurslarga nisbati, yakuniy mahsulotning resurslarga nisbatini keltirib o'tish mumkin. Bu yerda e'tiborga molik jihati shundaki, iqtisodiy samaradorlikning asosiy mezonlarini aniqlashda ikkita oqim mavjud bo'lib, ularning birinchisi "xarajat"lar, ikkinchisi esa "resurs"lar konsepsiyasiga mos keladi.

A.Ulmasov, A.Vaxobovlar "samaradorlik resurslar sarflari bilan ishlab chiqarishdan olingan natijaning taqqoslanishini bildiradi, ya'ni bu nima sarflab nimaga erishilganini ko'rsatadi" deb ta'rif berishgan va uni quyidagi formula yordamida hisoblashni taklif qilishgan.

$$S = \frac{Mq}{Rs} \quad (1)$$

Bu erda, S –samaradorlik; Mq –mahsulot va xizmatlar qiymati; Rs – resurslar sarfi.

A. Burxonovning ta'kidlashicha, "iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarishning barcha jarayonlarini o'z ichiga olib, insonlarning ishlab chiqarish natijalarini o'zida aks ettiradi va sof daromad ko'rinishida shakllanib, ishlab chiqarishni kengaytirish, ishchilarning moddiy farovonligini oshirish, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun moliyaviy asos bo'lib xizmat qiladi".

I.I. Sigov esa mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, mehnat unumdorligini oshirish, materiallar, energiya, yoqilg'i sarfini kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish bu fan-texnika taraqqiyoti iqtisodiy samaradorligining ko'rsatkichidir deb hisoblaydi va uni aniqlash uchun

$$E = \frac{D}{Z} \quad (2)$$

---

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaati. -Xalq so'zi, 2017-yil 23-dekabr.-b. 4.

formulasini taklif qiladi. Bunda: samaradorlik (E) samara(D)ning sarflar(Z) ga nisbatini ifodalaydi.

Dissertatsiyaning **“Qoramolchilik mahsulotlari ishlab chiqarishi rivojlanishining hozirgi holati”** deb nomlangan ikkinchi bobida Qoraqalpog‘iston Respublikasi qoramolchilik tarmog‘ining rivojlanish holati, qoramolchilik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi va unga ta’sir qiluvchi omillar va respublikada qoramolchilik mahsuloti ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan.

Qoramolchilik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoni aniq, bir-biridan sezilarli farqlanuvchi, shuning bilan birga o‘zaro mustahkam bog‘liq bosqichlardan iborat bo‘lib, bu tarmoqni samarali rivojlantirish uchun keng qamrovli omillar tizimini yaratish va o‘zaro muvofiqlashtirishni talab etadi. Mazkur soha o‘zida ilmiy-texnik taraqqiyotning texnikaviy, texnologik, biologik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy yo‘nalishlarini mujassamlashtiruvchi, ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida qoramolchilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligi va sifatining oshishiga xizmat qiladigan o‘zaro bog‘liq va to‘ldiruvchi muhim omillar ta’siri va ulardan oqilona foydalanish natijasida rivojlanish tendensiyasiga ega bo‘ladi.

Bugungi kunda qoramolchilik sohasini, jumladan, sutchilik sohasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda sut mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jaligi korxonalarini va chorvachilik majmualarida sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonini yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish orqali monitoring qilish va boshqarish dolzarb masalalarning biri hisoblanadi. Sut ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirilgan robot uskunalari va hisoblash texnikalarning yangi avlodlaridan foydalanish, ya’ni, aqlli sut fermasini yaratish ishlab chiqarish samaradorligini 40 – 50 foizga oshiradi. Sut sanoatini rivojlanishi sut mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sifatini nazorat qilish va boshqarish tizimining qanchalik takomillashganiga bog‘liq.

Aqlli nazorat tizimiga ega aqlli sut fermasini ishlab chiqish chorva mollarining mahsuldorligini va sut mahsulotlari sifatini va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini yaratadi. Ushbu aqlli sut fermasini yaratish uchun sut fermasini intellektual boshqarish tizimi uchun kompyuter dasturining algoritmini ishlab chiqish sut sifati va chorva mollarining holatini doimiy monitoring qilish uchun axborot tizimini yaratish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2022-yili qoramollarning bosh soni 1175,9 mingni tashkil qilib 2010-yil bilan solishtirganda bir yarim baravarga ko‘paygan. Qoramollar asosan respublikada dehqon (shaxsiy) yordamchi xo‘jaliklar tomonidan boqiladi. Xo‘jaliklar kesimida chorva mollarining ulushini tahlil qilar ekanmiz, chorva mollarning 93 foizi, ya’ni, 1091,5 ming qoramollar dehqon (shaxsiy) yordamchi xo‘jaliklarga, 5,8 foizi fermer xo‘jaliklariga va 1,2 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi (1-jadval).

**1-jadval**

**Qoraqalpog‘iston Respublikasida barcha turdagi qishloq xo‘jaligi korxonalarida chorva mollari va sigirlarning bosh soni<sup>6</sup>**

| Qishloq xo‘jaligi korxonalar                                       | 2010    | 2015    | 2021                    | 2022      |
|--|---------|---------|-------------------------|-----------|
| <i>Barcha turdagi qishloq xo‘jaligi korxonalar</i>                 |         |         |                         |           |
| Qoramollar   | 715 792 | 871 735 | <sup>1</sup><br>138 443 | 1 175 884 |
| shu jumladan, sigirlar   | 237 796 | 269 317 | 330 323                 | 340 656   |
| <i>Fermer xo‘jaliklari</i>   |         |         |                         |           |
| Qoramollar   | 42 370  | 33 502  | 62 030                  | 67 892    |
| shu jumladan, sigirlar   | 14 122  | 12 030  | 22 897                  | 25 784    |
| <i>Dehqon (shaxsiy) yordamchi xo‘jaliklari</i>                     |         |         |                         |           |
| Qoramollar   | 650506  | 822933  | 1063528                 | 1091492   |
| shu jumladan, sigirlar   | 217184  | 253116  | 302006                  | 308176    |
| <i>Qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i> |         |         |                         |           |
| Qoramollar   | 22916   | 15300   | 12855                   | 16500     |
| shu jumladan, sigirlar   | 6490    | 4171    | 5420                    | 6696      |

Jadval ma‘lumotlaridan shuni ko‘rishimiz mumkinki, qoramollarning aksariyat qismi dehqon (shaxsiy) yordamchi xo‘jaliklarda yetishtirganligi bois, ushbu toifadagi xo‘jaliklarning faoliyatiga ilmiy yondashish, ozuqa bazasini shakllantirish muammolarini hal etish, ozuqa sifatini nazorat qilish kabi masalalarning yechimini topishni taqoza etadi.

**2-jadval**

**Qoraqalpog‘iston Respublikasida sut ishlab chiqarish (xo‘jalik toifalari bo‘yicha, tonna)<sup>7</sup>**

| Qishloq xo‘jaligi korxonalar                                | 2010          | 2015          | 2021          | 2022          |
|---|---------------|---------------|---------------|---------------|
| Fermer xo‘jaliklari   | 8472          | 13819         | 26070,0       | 27139,0       |
| Dehqon (shaxsiy) yordamchi xo‘jaliklari                     | 174455        | 304301        | 387791,0      | 401522,0      |
| Qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 626           | 4010          | 4760,0        | 5341,0        |
| <b>QR jami:</b>   | <b>183553</b> | <b>322130</b> | <b>418621</b> | <b>434002</b> |


Qoraqalpog‘iston Respublikasida sigirlar qoramollarning 29 foizini tashkil qiladi va 2022 yilda 434002 tonna sut sog‘ib olingan. Umumiy sut yetishtiruvchi sigirlar 340656 ni tashkil qilib, 90,5 foizi dehqon (shaxsiy) yordamchi xo‘jaliklar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Respublika bo‘yicha sut ishlab chiqarish hajmi 2022-yili 434 ming tonnani tashkil qilib, 2010-yilga nisbatan qariyb 2,5 baravarga ko‘paygan (2-jadvalga qarang).

Bugungi kunda chorvachilik sohasini rivojlantirish uchun mamlakatimiz va jahon ilm – fani va ishlab chiqarishning innovatsion yutuqlaridan foydalanish asosida ushbu sohani tubdan modernizatsiya qilish zarur. Sut ishlab chiqaruvchi fermalarning hozirgi holatini tahlil qilar ekanmiz, fermalarning texnologik

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

jarayonlari asosan qo'lda bajariladi. Ushbu qo'ldan bajariladigan texnologik jarayonning o'rniga intellektual boshqarish tizimiga ega avtomatlashgan aqlli fermani yaratish ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi (1-rasm).



**1-rasm. Aqlli fermani boshqarishning intellektual tizimi<sup>8</sup>.**

Chorvachilik O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida juda qadimdan shakllangan tarmoqlaridan biri bo'lib, mamlakat aholisi, ayniqsa qishloq joylarda yashovchi aholi chorva mollari boqish, go'sht, sut va boshqa chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hamda ularni dastlabki qayta ishlash bo'yicha juda katta tarixiy bilim, tajriba va ko'nikmalarga ega.

Chorva mollari bosh soni O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasida yuqori sur'atlar bilan o'sgan. Jumladan, 2021-yilda 2017-yildagiga nisbatan O'zbekiston Respublikasida qoramollar bosh soni 5,9 foizga, sigirlar soni 9,1 foizga, qo'y va echkilar bosh soni 7,7 foizga, otlar soni 12,2 foizga

<sup>8</sup> Mazkur ishlanma tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tuzilgan.

va parrandalar bosh soni 21,7 foizga o'sgan. Shu davrda Qoraqalpog'iston Respublikasida chorva mollari bosh soni mos ravishda 15,3, 15,9, 24,2, 30,4 hamda 44,7 foizga o'sgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki chorva mollari bosh soni Qoraqalpog'iston Respublikasida O'zbekiston Respublikasidagiga nisbatan ancha tez sur'atlarda o'sgan.

### 3-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasida mavjud chorva mollarning bosh soni, ming bosh<sup>9</sup>

|  | 2000    | 2017    | 2018    | 2019    | 2020    | 2021    | 2021 yil<br>2000<br>yilga<br>nisbatan,<br>% |
|--|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---|
| <b>O'zbekiston Respublikasi</b>          |         |         |         |         |         |         |   |
| <b>Qoramollar</b>                        | 5281,8  | 12471   | 12814,1 | 12968,3 | 13154,3 | 13218,3 | 250,3                                       |
| <b>Shu jumladan, sigirlar</b>            | 2310,0  | 4336,5  | 4626    | 4663,5  | 4729,4  | 4733,6  | 204,9                                       |
| <b>Sigirlar salmog'i, %</b>              | 43,7    | 34,7    | 36,1    | 35,9    | 35,9    | 35,8    |   |
| <b>Qo'y va echkilar</b>                  | 8863,6  | 20640,9 | 21580,5 | 21986   | 22458,8 | 22246,4 | 251,0                                       |
| <b>Otlar</b>                             | 148,4   | 230,6   | 242,5   | 247,3   | 254,1   | 258,8   | 174,4                                       |
| <b>Parranda (mln. bosh)</b>              | 14521,3 | 74870,1 | 86374,8 | 93132,3 | 89589,7 | 91136,6 | 627,6                                       |
| <b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>     |         |         |         |         |         |         |   |
| <b>Qoramollar, ming bosh</b>             | 382,6   | 1009,3  | 1057,9  | 1095,3  | 1138,4  | 1163,7  | 304,1                                       |
| <b>Shu jumladan, sigirlar, ming bosh</b> | 161,3   | 293,5   | 302,9   | 316,8   | 327,9   | 340,4   | 211,0                                       |
| <b>Sigirlar salmog'i, %</b>              | 42,2    | 29,1    | 28,6    | 28,9    | 28,8    | 29,2    |   |
| <b>Qo'y va echkilar, ming bosh</b>       | 437,4   | 939,7   | 1031,8  | 1089,7  | 1136,6  | 1167,7  | 266,9                                       |
| <b>Otlar, bosh</b>                       | 16688   | 20473   | 22052   | 23809   | 25763   | 26710   | 160,0                                       |
| <b>Parranda (mln. bosh)</b>              | 718,6   | 3285,3  | 3871,3  | 4310,8  | 4598,9  | 4752,6  | 661,4                                       |

Jadval ma'lumotlari qoramollar bosh soni 2021-yilda 2000-yilga nisbatan O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasida juda tez sur'atlar bilan o'sganligini ko'rsatadi. Demak, qoramolchilik asosan ekstensiv yo'l bilan rivojlanayotgan ekan. Demak, kelgusi yaqin kelajakdagi asosiy e'tibor qoramollar zotini yaxshilash ishlariga qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasi aholisi uchun asosiy oziq-ovqat turi hisoblangan chorvachilik mahsulotlari, go'sht, sut va tuxum ishlab chiqarish hajmi yildan yilga o'sish tendensiyasiga ega. 2017-yilda 2286,8 ming tonna tirik vaznda go'sht ishlab chiqarilgan bo'lsa, uning hajmi 2021-yilda 2509,8 ming tonnani tashkil etgan yoki ushbu yillarda o'sish 109,7 foizni tashkil etgan. Shu yillarda mos ravishda sut ishlab chiqarish 109,5, tuxum ishlab chiqarish 123,3 foizga o'sgan.

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham ushbu yillarda asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari go‘sh, sut va tuxum ishlab chiqarishning o‘sganligini ko‘rish mumkin. Masalan, 2017-yilda 73,6 ming tonna go‘sh ishlab chiqarilgan bo‘lsa 2021-yilda 77,8 ming tonna yoki go‘sh ishlab chiqarish shu yillar davomida 105,7 foizga oshgan. 2017-yilda jami bo‘lib, 226,4 ming tonna sut tshlab chiqarilgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 2021 yilda 241,3 ming tonnani tashkil etgan va o‘sh 106,5 foizni tashkil qilgan. 2017-yilda jami bo‘lib, 234,3 mln. dona tuxum ishlab chiqarilgan bo‘lsa 2021-yilga kelib tuxum ishlab chiqarish 248,3 mln. donani tashkil etgan yoki o‘rganilayotan davrda tuxum ishlab chiqarish 105,9 foizga o‘sganligini ko‘ramiz.

#### 4-jadval

### O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi jon boshiga asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi<sup>10</sup>

|   | O‘zbekiston Respublikasida |         |         |         |         | Qoraqalpog‘iston Respublikasida |       |       |       |       |
|---|----------------------------|---------|---------|---------|---------|---------------------------------|-------|-------|-------|-------|
|   | 2017                       | 2018    | 2019    | 2020    | 2021    | 2017                            | 2018  | 2019  | 2020  | 2021  |
| <b>Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi:</b>   |                            |         |         |         |         |                                 |       |       |       |       |
| <b>Go‘sh, ming tonna</b>  | 2286,8                     | 2430,5  | 2473,6  | 2519,6  | 2509,8  | 73,6                            | 74,2  | 75,1  | 75,6  | 77,8  |
| <b>Sut, ming tonna</b>  | 10047,9                    | 10466,4 | 10714,3 | 10976,9 | 11008,7 | 226,4                           | 227,1 | 231,3 | 232,2 | 241,3 |
| <b>Tuxum (mln, dona)</b>  | 6332,7                     | 7459,3  | 7771,2  | 7781,2  | 7811,9  | 234,3                           | 236,8 | 238,2 | 237,5 | 248,3 |
| <b>Aholi jon boshiga ishlab chiqarish:</b>  |                            |         |         |         |         |                                 |       |       |       |       |
| <b>Go‘sh (tirik vaznda),</b>  | 70,6                       | 73,7    | 73,7    | 73,6    | 73,1    | 37,9                            | 37,8  | 38,1  | 39,3  | 39,9  |
| <b>Go‘sh, so‘yilgan vaznda, kg</b>  | 40,9                       | 42,7    | 42,7    | 42,6    | 42,3    | 21,9                            | 21,9  | 22,3  | 22,8  | 23,1  |
| <b>Sut, kg</b>  | 310,2                      | 317,6   | 319,1   | 320,7   | 321,2   | 121,3                           | 119,8 | 122,1 | 123,4 | 122,6 |
| <b>Tuxum (dona)</b>   | 195                        | 226     | 231     | 227     | 232     | 124,6                           | 124,3 | 126,4 | 127,1 | 127,3 |
| <b>Tibbiy me‘yor asosida o‘z ishlab chiqarish asosida ta‘minlanganlik darajasi, %</b> |                            |         |         |         |         |                                 |       |       |       |       |
| <b>Go‘sh</b>  | 88,7                       | 92,6    | 92,6    | 92,4    | 91,7    | 47,5                            | 47,5  | 48,1  | 49,4  | 50,1  |
| <b>Sut</b>  | 100,0                      | 102,3   | 103,2   | 103,3   | 103,1   | 39,1                            | 38,4  | 40,2  | 40,9  | 40,8  |
| <b>Tuxum</b>  | 57,3                       | 66,4    | 67,9    | 66,7    | 68,0    | 36,6                            | 36,5  | 37,1  | 37,4  | 37,4  |

O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti, jumladan chorvachilik mahsulotini qiymat ko‘rsatkichlarida o‘shishi yillik 5 foizdan kam bo‘lmayotganligini kuzatishimiz mumkin. Albatta, qiymat ko‘rsatkichlar iqtisodiyot uchun, bozorda faoliyat olib borayotgan iqtisodiy subyektlar uchun juda muhim hisoblanadi. Ammo aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlanishi borasida qiymat ko‘rsatkichlar o‘z ahamiyatini keskin pasaytiradi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlanish masalasi yuzaga chiqqanda natural ko‘rsatkichlar muhim hisoblanadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasida chorvachilik mahsulotlarini natural hajmda

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

ishlab chiqarish juda sekinlik bilan o'smoqda. Raqamlar go'sht, sut va tuxum ishlab chiqarish hajmi yiliga o'rtacha 1-2 foizdan oshmayapti. Bu esa aholini minimal tibbiy me'yor asosida go'sht, sut va tuxum bilan ta'minlanish darajasini talab darajada qondira olmaydi. Chunki, shu yillar ichida nafaqat go'sht, sut va tuxum natural hajmining oshishi yuz berganligi, balki aholi sonining ham oshib borayotganligini ko'rish mumkin.

## 5-jadval

### Respublikaning xo'jalik yuritish shakllari kesimida yirik shoxli qoramollar bosh sonining o'zgarish dinamikasi, ming bosh<sup>11</sup>

|                                     | O'zbekiston Respublikasi |         |                            | Qoraqalpog'iston Respublikasi |        |                            |
|-------------------------------------|--------------------------|---------|----------------------------|-------------------------------|--------|----------------------------|
|                                     | 2017                     | 2021    | 2021y. 2017 y. nisbatan, % | 2017                          | 2021   | 2021y. 2017 y. nisbatan, % |
| <b>Barcha toifadagi xo'jaliklar</b> | 12471,0                  | 13218,3 | 106,0                      | 1009,3                        | 1163,7 | 115,3                      |
| <b>Shundan: q.-x.korxonalari</b>    | 179,7                    | 200,1   | 111,3                      | 8,5                           | 13,8   | <b>162,3</b>               |
| <b>ulushi %da</b>                   | 1,4                      | 1,5     |                            | 0,8                           | 1,2    |                            |
| <b>fermer xo'jaliklari</b>          | 615,9                    | 803,8   | 130,5                      | 45,8                          | 63,9   | <b>139,5</b>               |
| <b>ulushi %da</b>                   | 4,9                      | 6,1     |                            | 4,5                           | 5,5    |                            |
| <b>dehqon xo'jaliklari</b>          | 11675,4                  | 12214,4 | 104,6                      | 955,0                         | 1086,0 | <b>113,7</b>               |
| <b>ulushi %da</b>                   | 93,7                     | 92,4    |                            | 94,6                          | 93,3   |                            |

Aholi sonini oshib borishiga nisbatan, oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan go'sht, sut va tuxum ishlab chiqarish tezroq sur'atlar bilan o'sishini ta'minlash talab qilinadi. Agarda aholi sonining o'sishiga nisbatan go'sht, sut va tuxum ishlab chiqarish hajmining o'sishi past bo'lsa, boshqa sharoitlar (import hajmi o'zgarishsiz holda) aholini shu mahsulotlar bilan ta'minlanish darajasi pasayadi. Agarda aholi soniga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari jumladan go'sht, sut va tuxum ishlab chiqarish hajmi tez suratlarda o'ssa, aholini shu mahsulotlar bilan ta'minlanganlik holati ham o'sadi. Jadval ma'lumotlari ushbu qoidani to'g'riligini isbotlaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga go'sht, sut va tuxum ishlab chiqarish o'rganilayotgan davrda juda kam miqdorga o'sganligini ko'rish mumkin. Masalan, 2017-yilda aholi jon boshiga go'sht ishlab chiqarish tirik vaznda 70,6 kg. dan 2021-yilda 73,1 kg. ga oshgan yoki aholi jon boshiga go'sht ishlab chiqarish shu yillar ichida 3,5 foizga oshgan. Shu yillar ichida sut va tuxum ishlab chiqarish mos ravishda 1,0 va 2,1 foizga o'sgan.

O'rganilayotgan davrda O'zbekiston Respublikasida qoramollar bosh soni 2021-yilda 13218,3 ming boshni tashkil etib, 2017-yilga nisbatan 106 foizga o'sgan. Shu davrda Qoraqalpog'iston Respublikasida qoramollar bosh soni 115,3 foizga o'sgan. Bizning fikrimizcha keyingi yillarda qoramolchilikni rivojlantirishda ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Qoramollar bosh soni qishloq xo'jaligi korxonalarida va fermer xo'jaliklarida nisbatan tez sur'atlarda o'smoqda. 2021-yilda 2017-yilga nisbatan O'zbekiston Respublikasida qoramollar bosh soni fermer xo'jaliklarida 130,5 foizga, qishloq xo'jaligi korxonalarida 111,3 foizga o'sgan. Qoraqalpog'iston Respublikasida bu ko'rsatkich mos ravishda 139,5 va 162,3 foizni tashkil etgan.

<sup>11</sup>O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Qoramollar asosan aholining dehqon xo'jaliklari va shaxsiy tomorqa xo'jaliklarida jamlanganligini ko'rish mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi jami qoramollar bosh sonining 2017-yilda 93,7 foizi, 2021-yilda esa 92,4 foizi jamlangan. O'rganilayotgan davrda bu ko'rsatkichning 1,3 punktga kamayganligini ko'rish mumkin. Ushbu tendensiyani Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'lumotlarida ham ko'rish mumkin. Qoramollar bosh sonining ulushi dehqon xo'jaliklarida 2017-yilgi 94,6 foizdan 2021-yilga kelib 93,3 foizga tushib qolgan yoki bu ko'rsatkich 1,3 punktga kamaygan. Ammo, jami qoramollar bosh sonining 93-94 foizining dehqon xo'jaliklarida mavjudligi qoramolchilikni rivojlantirishda qator kamchiliklarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Qoramollarning go'shtga topshirilishi asosan uy sharoitida mahalliy qassoblar ishtirokida yuz beradi. Qoramolni uy sharoitida so'yish uning qonini nobud bo'lishiga olib keladi. Bir bosh qoramolni so'yganda yoshi, vazni va zotiga qarab o'rtacha 11-14 litr qon chiqadi. Agarda har yili o'rta hisobda 1,6-1,7 mln. bosh qoramolni go'shtga topshirilishini inobatga olsak, yiliga kamida 17600 ming litr yoki 18700 ming litr qon olish mumkin bo'ladi. Maksimal holda bu ko'rsatkich 22400 - 23800 ming litrni tashkil etadi. Agarda bir litr qon 3 ming so'mdan hisoblanganda birinchi variantda 52800 - 56100 mln. so'm, ikkinchi variantda 67200 - 71400 mln. so'mni tashkil etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida yiliga jami bo'lib o'rta hisobda 114-117 ming bosh qoramol go'shtga topshiriladi. Yuqoridagi me'yor ko'rsatkichlari asosida hisoblaganda yiliga 1254 - 1638 ming litr qon olish mumkin. Bir litr qonni 3 ming so'mdan hisoblaganda 3762 - 4514 mln. so'mni tashkil etadi.

Chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish va soha mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligiga birinchi navbatda chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jalik yuritish subyektlari (qishloq xo'jalik korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklari, shuningdek, turli tashkilotlar tasarrufidagi yordamchi xo'jaliklar)ning joylashgan o'rni va ixtisoslashuv darajasi bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sirni bilvosita deyishning asosiy sababi shundaki, subyektlar dislokatsiyasi, tabiiy-iqlim omillari chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarida bevosita ishtirok etmaydi, ya'ni ular tashqi ta'sir ko'rsatuvchi omillar bo'lib hisoblanadi.

Chorvachilik xo'jaliklari chorva mollarini boqish sharoitiga qarab ham turli faoliyat yo'nalishlarida ixtisoslashadi. Masalan, yaylov chorvachiligida xo'jaliklar asosan go'sht yetishtirishga, sug'oriladigan mintaqalarda maxsus binolarda chorva mollarini boqadigan chorvachilik xo'jaliklari esa asosan sut, naslchilik hamda sut-go'sht yo'nalishlariga ixtisoslashadi.

Mustaqillik yillaridan e'tiboran, jumladan, qoramolchilik sohasini hududlarning tabiiy iqlim sharoitlari va ozuqa bazasi tarkibiga mos tarzda oqilona joylashtirish va ixtisoslashtirish sut ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Tahlil qilingan yillarda sut ishlab chiqarish yildan yilga ortib borgan, masalan, 2000-yilga nisbatan 2021-yilda o'rtacha 294,9 foizga, 2010-yilga nisbatan 173,6 foiz va 2015-yilga nisbatan 118,6 foizga ortgan. Jami ishlab chiqarilgan sutda viloyatlarning ulushi tahlil qilinganda 2021-yilda jami 10710,8 ming tonna sut ishlab chiqarilgan bo'lib, eng yuqori ulushga Samarqand (12 %), Qashqadaryo (10,7 %) va Farg'ona (9,7 %) viloyatlari ega bo'lishgan, chunki ushbu viloyatlarda sigirlar bosh soni ham boshqa viloyatlarga qaraganda ko'p. Ulushi eng kam

Sirdaryo (3,3 %), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (3,6 %), va Navoiy (4,4 %) viloyatlaridir. Zotan, ushbu viloyatlarda sigirlar bosh sonining kamligi va yaylovlarda boqilishini e‘tiborga olish kerak.

## 6-jadval

### Qoraqalpog‘iston Respublikasida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (tonna)<sup>12</sup>

| Yillar                      | 2000   | 2010   | 2017    | 2018     | 2019   | 2020   | 2021   |
|-----------------------------|--------|--------|---------|----------|--------|--------|--------|
| Go‘sh (tirik vaznda)        | 38980  | 58881  | 102299  | 107500,9 | 109651 | 110701 | 122878 |
| Shu jumladan: qoramol go‘sh | 34777  | 50500  | 82873   | 87479    | 89229  | 91013  | 101025 |
| Qo‘y va echki go‘sh         | 2706   | 5914   | 9405    | 9859,1   | 10056  | 10257  | 11386  |
| Ot go‘sh                    | 884    | 1185   | 1007    | 1017,1   | 1037   | 1058   | 1175   |
| Parranda go‘sh              | 613    | 1282   | 9014    | 9146     | 9329   | 9515   | 10562  |
| Sut                         | 126135 | 183553 | 364654  | 376500   | 384030 | 403810 | 448229 |
| Tuxum (ming dona)           | 20522  | 45998  | 258081  | 303100   | 309162 | 338400 | 375624 |
| Jun (fizik vaznda)          | 463,2  | 861    | 1192,98 | 1346,5   | 1373   | 1401   | 1555   |
| Qorako‘l teri (dona)        | 58663  | 68503  | 81164   | 86629,4  | 88362  | 90129  | 100043 |
| Asal                        | 88     | 94,95  | 512,7   | 570,2    | 582    | 593    | 658    |
| Baliq                       |        | 584    | 6141,9  | 7644,3   | 7797   | 14253  | 15820  |
| Pilla                       | 576    | 814,4  | 346,77  | 421,2    | 430    | 438    | 486    |

Respublika qoramolchiligida mahsuldorlik juda past. Bir bosh sigirdan yiliga o‘rtacha 1200-1440 kg sut sog‘ib olinmoqda. Ayniqsa bu ko‘rsatkich qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi qishloq xo‘jaligi tashkilotlarida juda achinarli holatda. Bu toifadagi xo‘jaliklarda mahsuldorlik 981-1154 kg. ni tashkil etmoqda. Bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasida qoramolchilik bilan shug‘ullanuvchi ayrim xo‘jaliklarda bu ko‘rsatkich ancha yuqori ekanligini ko‘ramiz. Masalan, “Amudaryo sohili” chorvachilik xo‘jaligida bir bosh sigirdan sog‘ib olingan sut 2017-yilda 3104 kg. ni tashkil etgan bo‘lsa 2021-yilda 3014 kg. ni tashkil etdi. Ya‘ni yillar davomida bir bosh sigirdan yiliga 3000 kg dan ko‘proq sut sog‘ib olingan. Har 100 sigirdan bir yilda o‘rtacha 94-96 bosh buzoq olgan. Huddi shunday “Panaev F.” chorvachilik xo‘jaligida o‘rtacha yillik sut sog‘ib olish 2017-yilda 3147 kg. ni 2021-yilda esa 3107 kg. ni tashkil etgan. Deyarli shunga o‘xshash ko‘rsatkichlarni “Shukrullo Sadullo to‘rtko‘l”, “Ravshan Qo‘ng‘irot” va “Chayka azamati” xo‘jaliklarida ham ko‘rish mumkin. Demak, Qoraqalpog‘iston Respublikasida qoramollar samaradorligini oshirish imkoniyati juda katta bo‘lib, undan foydalanish hozirgi davrda juda pastligicha qolmoqda. Agarda respublika bo‘yicha har bir bosh sigirdan 3000 kg. dan sut sog‘ib olinganda qo‘shimcha ravishda juda katta miqdordagi sut ishlab chiqarish imkoniyati bo‘lar edi.

Tahlil natijalarining guvohlik berishicha, respublikada jami ishlab chiqarilgan go‘shda chorva mollari turlarining salmog‘i turlicha bo‘lib, masalan 2019-yilda qoramol go‘sh 75,6 %, qo‘y va echki go‘sh 15,4 %, parranda go‘sh 8,3 %, pilla 1,7 % ni tashkil etgan.

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

choʻchqa goʻshti 0,2 % va boshqa hayvonlar goʻshti 0,5 foizni tashkil etgan. Demak, aholi uchun zarur boʻlgan chorvachilik mahsulotlaridan goʻsht mahsuloti ishlab chiqarishda asosiy salmoqni egallovchi qoramolchilik tarmogʻida 2021-yilda 2473,6 ming tonna goʻsht ishlab chiqarilgan. Bu koʻrsatkich 2005-yilga nisbatan 1403,8 ming tonna yoki deyarli 2,3 martaga koʻp demakdir. Lekin, respublikada goʻsht ishlab chiqarishdagi diqqatga sazovor jihat shundaki, yuqori oʻsish surʼati aynan qoramolchilikda emas, balki boshqa chorva mollari turlariga xosdir. Masalan, bu koʻrsatkich qoʻy va echki goʻshti ishlab chiqarishda 2,4 marta, parranda goʻshti 7,5 martadan va boshqa turdagi hayvonlar goʻshti boʻyicha 6,3 martadan ziyodni tashkil etgan. Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda aholi sonining yillik oʻsish tendensiyasi sharoitida insonlarni chorvachilik mahsulotlari bilan tibbiy meʼyorlar darajasida taʼminlash borasida chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish va mahsulot ishlab chiqarishni koʻpaytirish uchun istiqbolda asosiy diqqat eʼtiborni ushbu muhim sohaga xorijiy davlatlarning ilgʻor fan-texnika yutuqlarini, innovatsion gʻoya va texnologiyalarni tatbiq etish tadbirlarini jadallashtirish, yuqori natijalarga erishgan tadbirkorlarni iqtisodiy-ijtimoiy ragʻbatlantirish, tarmoq mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarini klaster shakl va munosabatlari asosida tashkil qilish kabi samarali yoʻl xaritalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ustuvor vazifalar sirasiga kirishini alohida eʼtirof etish lozim.

Dissertatsiyaning «**Qoramolchilik mahsulotlari ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish yoʻnalishlari**» deb nomlangan uchinchi bobida qoramolchilik tarmogʻini modernizatsiyalash, ozuqa bazasini rivojlantirish istiqbollari va qoramolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yoʻnalishlari bayon qilingan.

Qishloq xoʻjaligi tarmoqlari, shu jumladan qoramolchilik mahsulotlari yetishtirish samaradorligini oshirish nafaqat ularni rivojlantirishning ichki agrotexnik va texnologik omillaridan unumli foydalanishga, balki sohadagi ishlab chiqarish jarayonlariga tashqaridan turli yoʻnalishlarda koʻrsatiladigan xizmatlar hajmi va sifatiga ham bevosita bogʻliqdir. Binobarin, infratuzilma nafaqat mamlakat, balki uning barcha tarmoq, soha va jabhalarining rivojlanish jarayonlariga taʼsir koʻrsatadigan va, shuning bilan birga, oʻzaro bevosita yoki bilvosita bogʻliq quyi boʻgʻin tarmoqlari va xoʻjalik yuritish subyektlari majmui sifatida kengaytirilgan ijtimoiy-iqtisodiy takror ishlab chiqarishni taʼminlash borasida muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining har biri ishlab chiqarish infratuzilmasining u yoki bu xizmat turiga nisbatan ehtiyojmand boʻladi va shuning uchun ham ularni toʻgʻri tanlab, oqilona foydalanish chora-tadbirlariga alohida eʼtibor qaratish lozim. Shu nuqtayi nazardan chorvachilik tarmoqlari, jumladan qoramolchilik sohasi, bilan bogʻliq infratuzilmalarni shakllantirish, xizmat koʻrsatish subyektlari faoliyatini diversifikatsiyalash, ular oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliq munosabatlarni uygʻun tarzda tashkil qilish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Chorvachilik sohasida qishloq xoʻjaligi kooperativlarini tashkil etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu kooperativlar dehqon va fermer xoʻjaliklarining ozuqaga boʻlgan talabini qondirish, ular tomonidan yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarlarini yigʻish, qayta ishlash, sotishni yoʻlga qoʻyish orqali tarmoqda qoʻshilgan qiymatni yaratish, chorvachilik xoʻjaliklariga sifatli servis xizmatini

tashkil etish hamda chorvachilik mahsulotlarini eksport qilish orqali aholining chorvachilik sohasidan daromadlarini oshirish muammolarini hal etadi.


Qishloq xo'jaligi kooperativlariga chorvachilikka ixtisoslashgan dehqon va fermer xo'jaliklari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, qishloq xo'jaligi sohasidagi klasterlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari, omuxta yem va chorva ozuqalari sotish do'konlari, omuxta yem ishlab chiqarish korxonalari, chorva mahsulotlarini tayyorlash va sotish korxonalari, servis xizmati ko'rsatish korxonalari, restoran, kafelar, xududiy dehqon bozorlari, bolalar bog'chalari, maktab va kasalxonalar, ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlar, xorijiy korxonalar va tashkilotlar a'zo bo'lishlari mumkin.

Qishloq xo'jaligi kooperativlari joylarda ozuqa va yem-hashak sotib olish va sotish do'konlarini, chorvachilik mahsulotlari qayta ishlash korxonalarini, chorvachilik sohasiga servis xizmati ko'rsatishni, axborot-konsalting xizmati ko'rsatish markazlarini, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash va sotish punktlarini, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish punktlarini tashkil etishlari va qonunda ta'qiqlanmagan faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin. Ushbu kooperativlar faoliyatlarini samarali tashkil etish uchun ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishlari, o'zlariga yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish uchun oliy o'quv yurtlari va qishloq xo'jaligi texnikumlari bilan talabalarning malaka oshirishlari va kooperativ faoliyatiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yishi kerak.

Ilmiy ishimizning amaliy jihatlarini ochish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasining Qorauzak tumani A.Dosnazarov OFYda tashkil etilgan "PANAEV FARMS" fermer xo'jaligida tadqiqotlarimizni olib bordik. "PANAEV FARMS" fermer xo'jaligining faoliyati asosan yirik shoxli va mayda shoxli mollarni rivojlantirish hamda sut mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Ushbu fermer xo'jalikda hozirgi kunda 315 bosh yirik qoramollar boqilmoqda. Shundan, sigirlar soni 170 tani tashkil etadi. Korxonalar rahbari tomonidan chorvachilikni rivojlantirish maqsadida 2019-yilda Germaniyadan 60 bosh "Simental" zotli hamda Avstriya davlatidan 40 bosh "Golshteyn" zotli qoramollar olib kelinganligi ta'kidlandi. Shuningdek, bu xo'jalikda boshqaruv strukturasi ham kooperatsiya jarayonida ham xorijiy tajribalardan foydalanilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, fermer xo'jaligida Germaniyada o'zining ilmiy tadqiqotlarini olib borgan va qishloq xo'jaligi bo'yicha xalqaro ekspert hisoblangan Alisher Kurbanovning maslahatchi sifatida faoliyat yuritishi orqali mehnat unumdorligini yanada oshishiga erishilgan.

Kooperatsiya jarayonlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, xo'jalikda go'sht va sutni qayta ishlash, parranda va tuxum mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda marketing va sotish xizmatlari yo'lga qo'yilganligi korxonaning eng muhim natijalaridan biridir.

Shuningdek, fermer xo'jaligida 900 ga yaqin mayda shoxli mollar mavjud. Shu jumladan, qo'y va echkilarning mahsuldor turlari olib kelinganligi, mintaqada ushbu mahsulotlarga bo'lgan talabni qondirish maqsad qilingan. Bundan tashqari, ushbu mahsuldor mollarni aholi orasida va boshqa xo'jaliklarga tarqatish orqali xalq talabini qondirish maqsad qilingan.



**2-rasm. Qishloq xo'jaligi kooperativining tashkiliy-tarkibiy, boshqaruv tuzilmasi va tashqi aloqalar tizimining namunaviy loyihasi<sup>13</sup>**

<sup>13</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida chorvachilik qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda tarmoqda ayrim muammolar ham mavjud bo‘lib, ularning aniqlash va tarmoqqa ta‘sirini tahlil qilish va ekonometrik modellashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

$$\ln \hat{Y} = -211,5428 + 14,7501 \ln X_1 + 3,8083 \ln X_2 - 1,5368 \ln X_3 + 1,1275 \ln X_4 \quad (3)$$

Qoraqalpog‘iston Respublikasi chorvachilik mahsulotlaridan tushgan tushum hajmi bo‘yicha tuzilgan ko‘p omilli ekonometrik modelni (2) tekshirishda Fisherning F-mezoni bo‘yicha  $F_{\text{hisob}}=806,12$  va jadval qiymati  $F_{\text{jadval}}=4,12$  ga, Studentning t-mezoni jadval qiymati  $t_{\text{jadval}}=2,3646$  ga teng ekanligi modelning talabga javob berishini ko‘rsatadi. Darbin-Uotson mezonining pastki chegarasi qiymati  $DW_L=0,69$ , yuqori chegarasi qiymati  $DW_U=1,97$  va  $DW_{\text{hisob}}=2,1055$  ga teng. Demak,  $DW_{\text{hisob}} > DW_U$  bo‘lgani uchun natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud emas.

## 7-jadval

### Qoraqalpog‘iston Respublikasi chorvachilik mahsulotlaridan tushgan tushum hajmi va unga ta‘sir etuvchi ko‘rsatkichlarning prognoz hisob-kitoblari qiymatlari<sup>14</sup>

| Yillar       | Chorvachilik mahsulotlaridan tushgan tushum (mlrd so‘m), Y | Yaylovlar (gektar), X1 | Chorvachilik sohasida band aholi soni (ming kishi), X2 | Ozuqa ekinlarning ekin maydonlari (gektar), X3 | Qoramollar bosh soni (dona), X4 |
|--------------|--|------------------------|--|--|---------------------------------|
| 2010         | 422290,5   | 1666512,0              | 40,5   | 35855,0  | 715792,0                        |
| 2011         | 664177,6   | 1666378,0              | 40,0   | 27395,0  | 760125,0                        |
| 2012         | 871518,8   | 1666367,0              | 40,5   | 24144,0  | 800411,0                        |
| 2013         | 1076879,0  | 1661194,0              | 42,6   | 23127,0  | 841926,0                        |
| 2014         | 1394497,4  | 1651965,0              | 43,7   | 20426,0  | 861336,0                        |
| 2015         | 1713766,4  | 1654591,0              | 44,6   | 19874,0  | 871735,0                        |
| 2016         | 2130092,8  | 1671358,0              | 45,5   | 22296,0  | 955011,0                        |
| 2017         | 2524631,3  | 1709423,0              | 45,2   | 23333,0  | 1009333,0                       |
| 2018         | 3570752,8  | 1709511,0              | 45,4   | 20323,0  | 1057947,0                       |
| 2019         | 4260154,0  | 1709599,0              | 47,7   | 21339,0  | 1095338,0                       |
| 2020         | 5241890,0  | 1709775,0              | 51,8   | 22406,0  | 1109625,0                       |
| 2021         | 6021386,0  | 1709660,0              | 51,9   | 22847,0  | 1296305,0                       |
| <b>2022*</b> | <b>8454058,2</b>   | <b>1718616,2</b>       | <b>52,1</b>  | <b>21564,2</b>                                 | <b>1279653,6</b>                |
| <b>2023*</b> | <b>10677918,3</b>  | <b>1724314,3</b>       | <b>53,3</b>  | <b>21234,1</b>                                 | <b>1343112,2</b>                |
| <b>2024*</b> | <b>13486770,0</b>  | <b>1730031,2</b>       | <b>54,6</b>  | <b>20864,2</b>                                 | <b>1409717,7</b>                |
| <b>2025*</b> | <b>17034496,9</b>  | <b>1735767,1</b>       | <b>55,8</b>  | <b>20457,3</b>                                 | <b>1479626,1</b>                |


Qoraqalpog‘iston Respublikasida chorvachilik tarmog‘i rivojlanish ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirishda ko‘p omilli ekonometrik modellardan foydalanish lozim. Ko‘p omilli ekonometrik modelda natijaviy

<sup>14</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan prognoz qilingan.

ko'rsatkich bo'lib, chorvachilik mahsulotlaridan tushgan tushum (mlrd. so'm),  $Y$ , ta'sir etuvchi omillar bo'lib esa - yaylovlar (gektar),  $X_1$ , chorvachilik sohasida band aholi soni (ming kishi),  $X_2$ , ozuqa ekinlari maydonlari (gektar),  $X_3$  va qoramollar bosh soni (dona),  $X_4$  olindi.

Hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasida yaylovlar maydoni ( $\ln X_1$ ) o'rtacha bir foizga ortsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi chorvachilik mahsulotlaridan tushgan tushum hajmi ( $\ln Y$ ) o'rtacha 14,7501 foizga ortar ekan. Qoraqalpog'iston Respublikasi chorvachilik tarmog'ida band bo'lganlar soni 1 foizga ortishi, Qoraqalpog'iston Respublikasi chorvachilik mahsulotlaridan tushgan tushum hajmini ( $\ln Y$ ) o'rtacha 3,8083 foizga ortishiga olib kelar ekan. Ammo, Qoraqalpog'iston Respublikasida ozuqa ekinlar maydoni 1 foizga kamayishi, Qoraqalpog'iston Respublikasi chorvachilik mahsulotlaridan tushgan tushum hajmini ( $\ln Y$ ) o'rtacha 1,5368 foizga kamayishiga olib kelar ekan. Qoraqalpog'iston Respublikasida qoramollar bosh soni ( $\ln X_4$ ) o'rtacha bir foizga oshsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi chorvachilik mahsulotlaridan tushgan tushum hajmini ( $\ln Y$ ) o'rtacha 1,1275 foizga ortishiga olib kelar ekan.


7-jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, agar 2010-2021 yillar oralig'ida Qoraqalpog'iston Respublikasi chorvachilik mahsulotlaridan tushgan tushum hajmi o'rtacha 2491003,1 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich prognoz davrida (2022-2025 y.y.) o'rtacha 12413310,8 mlrd. so'mni tashkil etmoqda. Bu o'sish 2010-yilga nisbatan prognoz davrida 4,98 barobarni tashkil etmoqda. Ya'ni, prognoz davrida Qoraqalpog'iston Respublikasi chorvachilik mahsulotlaridan tushgan tushum hajmi ortib boradi. Bu esa asosan chorvachilik uchun yaylovlarning ortib borishi, chorvachilikda band bo'lganlar soni va qoramollar bosh sonining ko'payishi orqali amalga oshiriladi (3-rasmga qarang).



**3-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasida chorvachilik mahsulotlaridan tushgan tushumning 2010-2021 yillardagi dinamikasi va 2022-2025 yillarga prognoz qiymatlari**


Qoraqalpog'iston Respublikasida yaylovlar 2010-yilda 1666512,0 gektarni tashkil etgan va 2025-yilga kelganda ushbu ko'rsatkich 1735767,1 gektarga yetgan. Ya'ni, ushbu tahlil va prognoz davrida yaylovlar maydoni 104,16 foizga

ortgan. 2021-2025 yillarda respublikada yaylovlar maydoni o‘rtacha 101,53 foizga ortishi kuzatilmoqda.



#### 4-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasida yaylovlar maydonining 2010-2021-yillardagi dinamikasi va 2022-2025-yillarga prognoz qiymatlari

So‘nggi yillarda respublikada chorvachilik bilan shug‘ullanadigan xo‘jaliklar soni ortib bormoqda. Buning asosiy sababi, bir tomondan foyda olish bo‘lsa, ikkinchi tomondan davlat tomonidan chorvachilik bilan shug‘ullanadiganlar uchun turli imtiyozlar, kreditlar va boshqa bir qator yengilliklar berilishidir. Agar 2010 yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasida chorvachilik sohasida band aholi soni 40,5 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib chorvachilik tarmog‘ida band bo‘lganlar soni 55,8 ming kishini tashkil etilishi prognoz qilindi. Ya‘ni, Qoraqalpog‘iston Respublikasida chorvachilik sohasida band aholi soni 2025-yilda 2010-yilga nisbatan 137,89 foizga ortishi kuzatilmoqda.




#### 5-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ozuqa ekinlari ekin maydonlarining 2010-2021-yillardagi dinamikasi va 2022-2025-yillarga prognoz qiymatlari

Shu bilan bir qatorda, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ozuqa ekinlarining ekin maydonlari qisqarayotganini ko‘rish mumkin. Agar 2010-yilda respublikada ozuqa ekinlari maydonlari 35855,0 gektar bo‘lgan bo‘lsa, 2015-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 19874,0 gektargacha pasaydi yoki 44,57 foizga qisqardi. 2016-2017

yillarda va 2018-2021-yillarda ozuqa ekinlari maydonlari bir oz ko'paygan bo'lsa, prognoz davriga kelib, 2022-2025-yillarda pasayish tendensiyasiga ega. Mazkur pasayish yiliga 0,9732 ming gektarni tashkil etmoqda (5-rasmga qarang).

Qoraqalpog'iston Respublikasida qoramollar bosh soni 2010-yilda 715792 tani tashkil etgan. Prognoz davrida qoramollar bosh soni 1479626,1 tani tashkil etmoqda. 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 2010-yilga nisbatan 2,0 barobarga o'sishini kuzatish mumkin (6-rasm).



### **6-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasida qoramollar bosh sonining 2010-2021-yillardagi dinamikasi va 2022-2025-yillarga prognoz qiymatlari**

Xulosa qilib aytsak, Qoraqalpog'iston Respublikasida prognoz davrida barcha ko'rsatkichlarning o'sish jarayonlarini ko'rish mumkin. Lekin bitta omil, ozuqa ekinlari maydoni qisqarish tendensiyasiga ega.

## **XULOSALAR**

Qoraqalpog'iston Respublikasida qoramolchilikni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Har qanday tarmoq yoki sohani rivojlantirish turli yo'nalishlardagi, jumladan tashkiliy, tarkibiy, ma'muriy, iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy mexanizmlar va ularni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar majmuiga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bu jarayonda muayyan bir tarmoq yoki sohaning o'ziga xos xususiyatlari, tashkil etilish shakl-tamoyillari, talab etadigan resurslari sifati va hajmi, ulardan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning o'zaro bog'liqlik va uyg'unlik darajasi kabi ko'plab holatlarni hisobga olish lozim.

2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini tahlil qilishda, bizningcha, birinchi navbatda, natural ko'rsatkichlardan foydalanish lozim. Lekin, ma'lumki, natural ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish samaradorligining faqat bir tomonini yoritadi va korxonalar yoki tarmoq faoliyatini to'laqonli baholash imkonini bermaydi. Shuning uchun ham, ularning ishlab chiqarish samaradorligini har tomonlama va ilmiy-uslubiy jihatdan asosli baholashda tadqiqotlarimiz jarayonida ishlab chiqilgan yuqoridagi keltirilgan

barcha natural, qiymat va nisbiy ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishni lozim deb hisoblaymiz.

3. Qoramolchilik tarmog'ini samarali rivojlantirish uchun tabiiy-iqlim, bioekologik, texnik-texnologik, tashkiliy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy yo'nalishlarni mujassamlashtiruvchi va o'zaro bog'lovchi barcha muhim omillardan oqilona foydalanish chora-tadbirlariga asosiy e'tibor qaratish zarur.

4. Go'sht-sut mahsulotlarining asosiy hajmi (85-95 % i)ni ishlab chiqaruvchi dehqon (tomorqa) xo'jaliklarida mollarni zamonaviy texnologiyalar talablari asosida parvarishlash qoramollar mahsuldorligi, mahsulotlar sifati va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning eng muhim tashkiliy omillaridan bo'lib hisoblanishi shubhasiz. Shuning uchun ham, bizning fikrimizcha, har bir shaxsiy tomorqa (dehqon) xo'jaligi hovlisi (yer uchastkasi)ning o'lchami, konfiguratsiyasi, yashash uylarining joylashishi va eng asosiysi, oila a'zolarining sanitariya-gigiena talablariga mos istiqomat qilishlari uchun tegishli qulay sharoit yaratish, namunaviy loyiha asosida barcha talablarga javob beradigan ixcham molxonalar qurish va shu maqsadda, birinchidan, joylarda bu ishni bajaruvchi qurilish brigadalarini tashkil qilish va, ikkinchidan, bank muassasalari tomonidan uzoq muddatli imtiyozli kreditlar berish tartibini takomillashtirish va soddalashtirish lozim.

5. Hozirda chorvachilik mahsulotlari asosan dehqon xo'jaliklarida yetishtirilayotgan bo'lib, ulardagi mavjud qoramollar zotdorligi va irsiy xususiyatlari sut hamda go'sht mahsulotlarini keskin ko'paytirish imkonini bermaydi. Shu tufayli ham dehqon xo'jaliklaridagi chorva mollari naslini yaxshilash mexanizmlarini takomillashtirib borish lozim. Ushbu yo'nalishda chorva mollari zotini yaxshilash va aholiga zotdor mollar yetkazib berish tizimini yaratishni iqtisodiy va huquqiy rag'batlantirish bilan birga chorvadorlar malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Ishlab chiqarilayotgan va sotilayotgan chorvachilik mahsulotlariga belgilanayotgan baholar bilan chorva mollari uchun zarur bo'lgan oзуқalar, sanoat mahsulotlari narxlari o'rtasidagi nomutanosiblik tufayli tarmoqlar daromadlari kesimida vujudga kelayotgan tafovutlarni kamaytirish maqsadida tarmoqqa davlat tomonidan manzilli dotatsiya va subsidiyalar berish tizimini joriy qilish maqsadga muvofiq.

7. Respublikada qoramollarning mahsuldorligi talab darajasida emas. Buning asosiy sabablari qatoriga nasldor mollarning kamayib ketganligi va aholining sun'iy urug'lantirishga bo'lgan salbiy munosabati hamda naslli urug'larni yetkazib berishdagi monopol vaziyat, naslli mollar urug'larining sifatsizligi, mollarni sun'iy urug'lantirish markazlari va mutaxassislarning yetishmasligi, urchitishdagi texnologiyaning samarali emasligi, joylardagi dehqon va fermer xo'jaliklarida sun'iy urug'lantirish ishlarini amalga oshirish uchun malakali mutaxassislarning yetishmasligi kabi muammolarni hal etish chora-tadbirlarini amalga oshirish lozim.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.01.2020.I.20.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ БЕРДАХА**

---

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ БЕРДАХА**

**БАЛТАШЕВ ЖУРСИНБАЙ МУРАТБАЕВИЧ**

**НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СКОТОВОДСТВА И ПОВЫШЕНИЕ  
ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ  
КАРАКАЛПАКСТАН**

**08.00.04 – Экономика сельского хозяйства**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Нукус - 2023**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за номером B2022.4.PhD/Iqt1541.

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете имени Бердаха.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

Научный руководитель:

Хакимов Рашид  
кандидат экономических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Убайдуллаев Кайрулла  
доктор экономических наук, профессор

Ибрагимов Гайрат Аблакулович  
доктор философии (PhD) по экономическим наукам

Ведущая организация:

Ургенчский государственный университет


Защита диссертации состоится « 05 » августа 2023 г. в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/30.01.2020.1.20.06 по присуждению ученых степеней при Каракалпакском государственном университете. Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдилова, 1. Тел.: (99861) 223-60-78, факс.: (99861) 223-60-19, e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (регистрационный № 148, Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдилова, 1. Тел.: (99861)223-60-78, факс.: (99861)223-60-19, e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)).

Автореферат диссертации разослан « 22 » июля 2023 года.  
(реестр протокола рассылки № 32 « 22 » июля 2023 года.

  
Ж.К.Сауханов  
председатель научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.э.н.,  
профессор

  
Р.Б.Утемуратов  
участный секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней, PhD.,  
доцент

  
Т.Досчанов  
председатель научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.э.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В условиях усиления процессов глобализации в мире резко возрастает потребность населения в безопасных и здоровых продуктах питания, в том числе в продукции животноводства. По мнению экспертов Продовольственной и сельскохозяйственной организации (FAO) Организации Объединенных Наций «Хотя животноводческий сектор экономически не играет важной роли в мировой экономике, он считается очень важным как в экономическом, так и в политическом плане. На сеть приходится 40 процентов валовой продукции сельского хозяйства, обеспечивает работой 1,3 млрд. человека и создает условия для жизни миллиарду бедняков. Продукты животноводства считаются средством, с помощью которого можно насытить треть человечества, обеспечивая его белком. Предполагается, что мировое производство мяса увеличится с 229 миллионов тонн в 2001 году до 465 миллионов тонн в 2050 году, а производство молока увеличится с 580 миллионов тонн до 1043 миллионов тонн». Эффективное использование потенциала животноводства, в том числе скотоводства, требует исследования путей его дальнейшего развития и повышения направлений экономической эффективности.

В настоящее время в мире проводится ряд научных исследований, направленных на развитие и повышение экономической эффективности животноводства, в том числе скотоводства, в условиях растущей конкуренции за здоровые и безопасные продукты питания. Вопросы удовлетворения спроса населения на безопасные продукты питания, расширения и эффективного использования земель под животноводство, обеспечения баланса между сельскохозяйственными угодьями, в частности пастбищами, с ростом поголовья скота, рационального использования подземных и речных вод в животноводческих целях, использования рекреационных территорий в животноводческих целях, разработки экологически чистых продуктов являются одним из приоритетных направлений исследований в этой области.

В Узбекистане при гарантированном обеспечении населения продуктами питания уделяется внимание расширению использования в животноводческих целях бескрайних пустынь Республики Каракалпакстан и пастбищ на берегах Амударьи, имеющих уникальные климатические и экологические условия. Благодаря этому одной из важных задач является согласование состава пищевых продуктов, потребляемых населением, с требованиями научно обоснованных медицинских норм. «Приобретает актуальное значение обеспечение населения мясом, молочной продукцией на уровне медицинских норм, абсолютное и относительное снижение себестоимости производимой продукции, повышение производительности труда в отрасли, повышение экономической эффективности». Эффективная реализация этих задач позволит повысить экономическую эффективность

животноводства за счет дальнейшего совершенствования методики оценки экономической эффективности животноводства, создания "умных" молочно-скотоводческих комплексов, "умных" специализированных откормочных ферм и племенных телячьих ферм, создание «Инновационного отдела поддержки цифрового животноводства» в составе комитета ветеринарии республики, области, района, требует проведения научных исследований, направленных на оценку перспективных показателей объема производства продукции животноводства Республики Каракалпакстан.

